

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BANK XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich
“Bank ishi” kafedrasi professori
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: juraevisroil647@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5607-0089

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash sharoitida bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash hamda unga ta‘sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar yoritilgan. O‘zbekiston bank tizimining 2022–2026-yillardagi rasmiy ma‘lumotlari asosida banklarning resurs bazasi dinamikasi, davlat ulushi mavjud banklarning bozor hissasi, masofaviy xizmatlar qamrovi va mobil operatsiyalar tarkibi tahlil qilingan. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar va operatsiyalar hajmining o‘sishi xizmatlar raqobatbardoshligini to‘liq ifodalamasligi asoslangan. Shuningdek, maqolada bank xizmatlari raqobatbardoshligini mijozlar faolligi, operatsiyalarning muvaffaqiyatli yakunlanishi, murojaatlarning hal etilishi hamda xizmat tannarxi orqali baholash tartibini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, institutsional transformatsiya, xizmatlar raqobatbardoshligi, raqamli bank xizmatlari, faol mijoz, operatsiya samaradorligi, bank depozitlari, xizmat tannarxi, moliyaviy inklyuziya.*

РОЛЬ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

Жураев Исроил Иброхимович
Профессор кафедры «Банковское дело»
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: juraevisroil647@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5607-0089

Аннотация. *В статье освещены вопросы оценки конкурентоспособности банковских услуг в условиях трансформации коммерческих банков и основные экономические факторы, влияющие на неё. На основе официальных данных банковской системы Узбекистана за 2022–2026 годы проанализированы динамика ресурсной базы, изменение рыночной доли банков с государственным участием, охват дистанционного обслуживания и структура мобильных операций. Обосновано, что рост числа пользователей цифровых услуг и объёмов операций не позволяет в полной мере оценить конкурентоспособность услуг. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию её оценки с учётом фактической активности клиентов, доли успешно завершённых операций, результатов рассмотрения обращений и себестоимости оказанных услуг.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, трансформация, конкурентоспособност услуг, цифровой банкинг, активные клиенты, эффективност операций, качество обслуживания, финансовая инклюзия.*

THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS’ BUSINESS TRANSFORMATION IN ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF BANKING SERVICES

Juraev Isroil Ibrohimovich

Professor, Department of Banking
Tashkent State University of Economics
E-mail: juraevisroil647@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5607-0089

Abstract. *This article examines the assessment of banking-service competitiveness amid the transformation of commercial banks and the main economic factors affecting it. Official data on Uzbekistan‘s banking system for 2022–2026 are used to analyse banks‘ resource bases, the market share of banks with state participation, remote banking coverage and the composition of mobile transactions. The study explains why growth in digital-service users and transaction volumes alone is insufficient to assess service competitiveness. It also develops research-based proposals and practical recommendations for improving such assessments by considering actual customer activity, successful transaction completion, complaint resolution and the unit cost of services delivered.*

Keywords: *commercial banks, banking transformation, service competitiveness, digital banking, active customers, transaction completion, service quality, unit costs, financial inclusion.*

Kirish

So‘nggi yillarda tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat muhiti faqatgina bank xizmatlarining bahosi va xizmat ko‘rsatish shartlari bilan cheklanib qolmasdan, mijozlarning bankni tanlash jarayonida raqamli xizmatlardan foydalanish qulayligi, bank operatsiyalarining tezkorligi va xavfsizligi, xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarning shaffofligi hamda yuzaga keladigan muammolarni qisqa muddatlarda hal etish imkoniyatlariga tobora ko‘proq e‘tibor qaratayotganligi bilan ham izohlanmoqda. Mazkur holat banklar raqobatbardoshligini ta‘minlashda an‘anaviy narx omillari bilan bir qatorda, xizmat ko‘rsatish sifati, raqamli texnologiyalarning amaliy samaradorligi va mijozlar manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Masalan, omonat bo‘yicha yuqori foiz taklif etgan bankda hisobvaraq ochish murakkab bo‘lsa, mijoz boshqa bankning nisbatan sodda xizmatini afzal ko‘rishi mumkin. Shuning uchun bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholashda mahsulot narxi bilan birga xizmatdan foydalanishga ketadigan vaqt, uning ishonchliligi va mijoz uchun yaratiladigan amaliy qulaylikni ham o‘rganish zarur.

O‘zbekistonda banklar o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish uchun muhim huquqiy asoslardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son farmonidir. Mazkur farmonda banklarda davlat ishtirokini qisqartirish, korporativ boshqaruvni yaxshilash va xususiy sektorning bozor imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan[1]. Ushbu islohotlar natijasida mamlakatimizda mobil bank xizmatlari, masofadan identifikatsiya qilish va elektron to‘lovlardan foydalanish imkoniyatlari yana ham kengaydi. Biroq, banklarda raqamli xizmat mavjudligining o‘zi uning samarali ishlayotganini bildirmaydi. Mijoz ro‘yxatdan o‘tganidan keyin xizmatdan foydalanmasa yoki operatsiyani yakunlay olmasa, bank sarflagan raqamli investitsiya kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash sharoitida bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi mamlakat bank tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy va institutsional islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki banklar faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining takomillashuvi va moliya bozorida nodavlat banklar ishtirokining kengayishi banklar o‘rtasidagi raqobatning mazmuni hamda uning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklarining raqobat ustunligini faqat moliyaviy resurslar hajmi yoki taklif etilayotgan xizmatlar soni bilan emas, balki xizmatlarning sifati, ulardan foydalanish qulayligi, operatsion xarajatlarning maqbulligi va mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan ham belgilash zarurati ortib bormoqda. Shu jihatdan, banklar faoliyatini transformatsiyalash jarayonida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning xizmatlar raqobatbardoshligiga ta‘sirini iqtisodiy jihatdan asoslash,

mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va bank xizmatlari sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Banklar faoliyatini transformatsiyalash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Ayrim olimlar raqamli texnologiyalar bankning ichki ish jarayonlarini qanday o‘zgartirishiga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, boshqalari masofaviy xizmatlarning mijozlar qoniqishi, sodiqligi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga ta‘sirini o‘rgangan. Mazkur ilmiy qarashlarni birgalikda tahlil qilish bank xizmatlari raqobatbardoshligining qaysi jihatlari yetarlicha ochib berilganini va qaysi masalalar bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqot zarurligini aniqlash imkonini beradi. Shu maqsadda mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari ularning amaliy natijalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan M. Abdurahmonova (2024) o‘z tadqiqotida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash masalalarini o‘rgangan. Muallif masofaviy bank xizmatlari va mobil texnologiyalarni joriy etishda uchraydigan muammolarga e‘tibor qaratib, ularni bartaraf etish hamda bank faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirgan [2]. Ushbu tadqiqotning ahamiyatli jihati shundaki, raqamli transformatsiya yangi dasturiy mahsulot yaratish bilangina cheklanmasdan, bankning ichki jarayonlari va mijozga xizmat ko‘rsatish tartibini ham yangilashni talab etishi bilan bog‘liq.

Z. Xudayberganova (2023) O‘zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etib, amaliyotda mavjud bo‘lgan ayrim cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ilgari surgan [3]. Muallif o‘rgangan masalalar masofaviy xizmat ko‘rsatishning samarasi texnik tizimni ishga tushirish bilan yakunlanmasligini, uning bankning kundalik faoliyatiga qay darajada moslashtirilishi ham muhimligini ko‘rsatadi.

G. Lóska va J. Uotila (2024) korporativ bank xizmatlaridagi raqamli o‘zgarishlarni o‘rganib, transformatsiya an‘anaviy xizmatlarni birdaniga butunlay almashtirmasligini asoslab bergan. Ularning tadqiqotida raqamli vositalar dastlab ayrim operatsiyalarni bajarishi, keyinchalik mavjud xizmatlarni to‘ldirishi va oxir-oqibat bank mutaxassisining imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligi ko‘rsatiladi [4].

S. G. Ayinaddis, B. A. Taye va B. G. Yirsaw (2023) elektron bank xizmatlari sifati mijozning bankdan qoniqishi va unga sodiqligi bilan qanday bog‘liqligini Efiopiyada 385 nafar respondent ishtirokida o‘rgangan [5]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmatning ishonchli ishlashi, tezkorligi, xavfsizligi va murojaatlarga javob berish sifati mijozlar qoniqishi bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liq bo‘lgan.

P. Khera, S. Ng, S. Ogawa va R. Sahay (2021) 52 ta rivojlanayotgan mamlakatning 2011-2018-yillardagi ma‘lumotlarini o‘rganib, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [6]. Olimlar raqamli moliyaviy qamrovning kengayishi ijobiy iqtisodiy natijalar bilan bog‘liq ekanini qayd etish bilan birga, infratuzilma sifati, raqamli va moliyaviy savodxonlik hamda institutlar faoliyatiga alohida e‘tibor qaratgan.

S. Rajabov (2026) O‘zbekistonda aholiga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining rivojlanishini statistik ma‘lumotlar asosida tadqiq etgan. Muallif banklarning aktivlari, kredit va depozitlari bilan birga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar, bank kartalari hamda to‘lov infratuzilmasidagi o‘zgarishlarni umumlashtirgan [7].

Raqamli transformatsiya natijalarini baholashda xalqaro nazorat tashkilotlarining yondashuvlari ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Bazel bank nazorati qo‘mitasi (2024) raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini tezlashtirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkinligini, shu bilan birga ular operatsion uzilishlar, axborot xavfsizligi hamda strategik boshqaruv bilan bog‘liq yangi risklarni keltirib chiqarishini qayd etgan [8]. Buyuk Britaniyada ochiq bank xizmatlari bo‘yicha chop etilgan hisobotlarda esa foydalanuvchi ulanishlaridan tashqari haqiqiy to‘lovlar, API so‘rovlari va tizimning uzluksiz ishlashi ham alohida kuzatiladi [9].

Ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlarda banklarni raqamlashtirishning tashkiliy shartlari, mijozlar qoniqishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari keng yoritilgan. Shunga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotlarda xizmatga ro‘yxatdan o‘tish, undan haqiqatda foydalanish, operatsiyani muvaffaqiyatli yakunlash va bankning shu natijaga erishish uchun qilgan xarajatlari alohida-alohida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaning asosiy ilmiy farazi raqamli bank xizmatlarining kengayishi o‘z-o‘zidan bank uchun barqaror raqobat ustunligini yuzaga keltirmasligiga asoslanadi. Raqamli xizmatdan mijoz amalda foydalanib, boshlagan operatsiyasini muvaffaqiyatli yakunlaganda va bank ushbu xizmatni maqbul xarajat bilan ko‘rsata olgandagina uning natijasi raqobat ustunligiga aylanishi mumkin.

Maqolada qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni o‘rganish, tarkibiy ulushlarni hisoblash va statistik natijalarni ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Banklarning aktivlari, kreditlari va depozitlariga doir qoldiq ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli yillar 1-yanvar holatiga e‘lon qilingan rasmiy hisobotlari asosida taqqoslandi.

Tahlil va natijalar

Bank faoliyatini transformatsiyalashning xizmatlar raqobatbardoshligiga ta‘sirini to‘g‘ri baholash uchun, avvalambor, banklarning resurs bazasi qanday o‘zgarayotganini tahlil qilish lozim. Chunki raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va yangi xizmatlarni yo‘lga qo‘yish barqaror moliyalashtirish manbalari hamda puxta ichki boshqaruvni talab etadi. Shu bilan birga, bank aktivlari yoki depozitlari ko‘payganining o‘zi uning xizmatlari raqobatbardosh bo‘lib qolganini anglatmaydi. Buni aniqlash uchun jalb qilingan mablag‘larning qiymati, ularning muddatlari va mijozga xizmat ko‘rsatish xarajatlari qanday o‘zgarayotganini ham ko‘rib chiqish zarur. Shu maqsadda dastlab 1-jadvalda bank tizimi aktivlari, kreditlari va depozitlarining so‘nggi yillardagi dinamikasi tahlil qilindi.

1-jadval.

O‘zbekiston bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari [10]

Ko‘rsatkich	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026	2023–2026 o‘zgarish
Aktivlar	556 746	652 157	769 330	924 763	+66,1 %
Kreditlar	390 049	471 406	533 121	604 002	+54,9 %
Depozitlar	216 738	241 687	308 692	417 258	+92,5 %
Kredit/depozit, %	180,0	195,0	172,7	144,8	−35,2 f.p.

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, bank tizimi aktivlari 2022-yilda 556,7 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga 924,8 trln. so‘mga yetib, 66,1 foizga oshgan. Shu davrda kreditlar 390,0 trln. so‘mdan 604,0 trln. so‘mgacha yoki 54,9 foizga, depozitlar esa 216,7 trln. so‘mdan 417,3 trln. so‘mgacha yoki 92,5 foizga ko‘paygan. Depozitlarning kreditlarga qaraganda tezroq o‘sishi natijasida kreditlarning depozitlarga nisbati 180,0 foizdan 144,8 foizgacha, ya‘ni 35,2 foiz punktga pasaygan. Mazkur o‘zgarish bank tizimida depozitlarning kredit portfelini moliyalashtirishdagi nisbiy roli kuchayganini ko‘rsatadi.

Depozitlarning nisbatan tez o‘sishi banklar oldiga mijozlarni jalb qilish bilan birga ularni uzoq muddat saqlab qolish vazifasini ham qo‘ymoqda. Agar bank depozit hajmini faqat yuqori foiz taklif etish hisobiga oshirsa, resurslar qiymati ko‘tarilib, kreditlash va boshqa xizmatlardan olinadigan daromad kamayishi mumkin. Aksincha, omonatni mobil ilova orqali tez ochish, uning qoldig‘ini boshqarish va shartlarini tushunarli ko‘rsatish mijozning bank bilan ishlashini osonlashtiradi. Bunday qulaylik bankka yangi omonatchini jalb qilish va mavjud mijozni saqlash imkonini beradi. Shuning uchun resurs bazasidagi o‘zgarishlarning raqobatga ta‘sirini baholashda

depozitlar o‘sishi bilan bir qatorda mijozlarning takroriy murojaatlari, omonatlarni saqlash muddati va xizmat tannarxini ham hisobga olish zarur.

2-jadval

Davlat ulushi mavjud banklarning bozor hissasi (% da) [11]

Ko‘rsatkich	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
Aktivlardagi ulushi	78.2	67.7	65.4	63.5
Kreditlardagi ulushi	83.2	70.7	68.8	67.0
Depozitlardagi ulushi	62.5	51.5	50.1	51.0

Ushbu jadvalda banklarning mulkchilik shakli bo‘yicha tarkibi sezilarli o‘zgarayotganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, davlat ulushi mavjud banklarning umumiy aktivlardagi hissasi 2023-yil boshidagi 78,2 foizdan 2026-yil boshida 63,5 foizga tushib, 14,7 foiz punktga qisqargan. Shu davrda mazkur banklarning kredit xizmatlari bozoridagi ulushi 83,2 foizdan 67,0 foizgacha, depozitlardagi ulushi esa 62,5 foizdan 51,0 foizgacha pasaygan. Boshqa mulkchilik shaklidagibanklarning aktivlardagi hissasi mos ravishda 21,8 foizdan 36,5 foizga kengaygan. Mazkur o‘zgarishlar bank bozorida nodavlat banklar uchun iqtisodiy maydon kengayganiga ishora qiladi.

Davlat ulushi mavjud banklarning bozor hissasi qisqarishi boshqa banklar uchun mijozlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayganini anglatishi mumkin. Bunday sharoitda banklar nafaqat foiz stavkalari, balki xizmatlarning tezligi, qulayligi va mijozga munosabat bilan ham raqobatlashadi. Biroq jadvaldagi ulushlar o‘zgarishiga banklarning mulkchilik toifasi almashishi, yirik aktivlar tarkibining o‘zgarishi va moliyalashtirish siyosati ham ta‘sir qiladi. Shu sababli ushbu ma‘lumotlar asosida qaysidir bank raqamli xizmatlari hisobiga ustunlikka erishganini qat‘iy aytish mumkin emas. Buning uchun bozor ulushi dinamikasini ayni bankdagi faol mijozlar, xizmatning bajarilish vaqti hamda operatsion xarajatlar bilan taqqoslab o‘rganish lozim.

Bank xizmatlarining masofaviy kanallarga o‘tishi mijozning bank filiallariga borish zaruratini kamaytirib, to‘lov, omonat va ayrim kredit amaliyotlarini istalgan joydan bajarish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, bank ilovasida ro‘yxatdan o‘tganlar soni uning xizmatidan muntazam foydalanadigan mijozlar soniga teng emas. Chunki bir kishi bir nechta bankda hisob ochishi, turli ilovalarda ro‘yxatdan o‘tishi yoki ro‘yxatdan o‘tgach uzoq vaqt hech qanday operatsiya bajarmasligi mumkin. Shuning uchun masofaviy xizmatlar haqidagi statistikani tahlil qilayotganda “qaydlar soni” bilan “faol foydalanuvchilar soni”ni farqlash muhimdir. Quyidagi jadvalda aynan masofaviy xizmatlar tizimlarida qayd etilgan foydalanuvchi yozuvlari dinamikasi keltiriladi.

3-jadval

Masofaviy bank xizmatlari tizimlaridagi qaydlar dinamikasi [12]

Hisobot sanasi	Jami qaydlar, mln	Oldingi yilga nisbatan o‘sish, %
01.01.2022	20,20	—
01.01.2023	30,00	48,5
01.01.2024	43,56	45,2
01.01.2025	52,92	21,5
01.01.2026	82,90	56,7

Jadval ma‘lumotlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tgan qaydlar soni 2021-yildagi 20,20 milliondan 2026-yilda 82,90 milliongacha yetganini ko‘rsatadiki. So‘nggi besh yil davomida ushbu ko‘rsatkich qariyb 4,1 baravarga oshgan. Bunday dinamika masofaviy xizmatlar kanallarining bank tizimidagi o‘rni kengayganidan dalolat beradi. Biroq qaydlar sonini har oy faol operatsiya bajarayotgan foydalanuvchilar soni bilan tenglashtirish

mumkin emas. Chunki bir shaxsning bir nechta bank tizimida ro‘yxatdan o‘tishi yoki umuman faol bo‘lmagan hisoblarning saqlanib qolishi ko‘rsatkich miqdoriga ta‘sir qilishi mumkin.

Banklar o‘rtasidagi raqobat uchun mijozning ilovaga kirgani emas, aynan kerakli xizmatni to‘liq bajara olgani ko‘proq ahamiyatga ega. Masalan, mijoz onlayn omonat ochishni boshlagan, ammo texnik xatolik tufayli yakunlay olmagan bo‘lsa, uning ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchi sifatida hisobga olinishi xizmat sifati yuqoriligini anglatmaydi. Shu sababli har bir bank kamida 30 kun davomida faol foydalangan mijozlar ulushini, boshlangan operatsiyalarning nechta foizi muvaffaqiyatli tugaganini va hal etilgan murojaatlar bo‘yicha takroriy shikoyatlar darajasini kuzatishi zarur. Bunday ma‘lumotlar bankning qaysi xizmatida mijoz ko‘proq qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlashga yordam beradi. Navbatdagi jadvalda mobil bank operatsiyalarining qiymati tahlil qilinadi, biroq bu qiymat bilan xizmat sifati o‘rtasidagi farq ham e‘tiborda tutiladi.

4-jadval

Jismoniy shaxslarning mobil ilovalardagi ayrim operatsiyalari to‘g‘risida ma’lumot [13]

Operatsiya turi	01.01.2024 trln so‘m	01.01.2025 trln so‘m	O‘sish, %
Jami onlayn operatsiyalar	250,1	396,7	58,6
Onlayn omonat operatsiyalari	46,5	77,8	67,3
Onlayn valyuta konversiyasi	27,4	36,3	32,5
Onlayn mikroqarzlar	13,3	24,4	83,5
Kreditlarni onlayn so‘ndirish	15,3	29,7	94,1

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, jismoniy shaxslar mobil ilovalar orqali 2023-yilda 250,1 trln so‘mlik, 2024-yilda esa 396,7 trln so‘mlik onlayn operatsiyalarni amalga oshirgan. Bir yil ichidagi o‘sish 58,6 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, kreditlarni onlayn so‘ndirish hajmi 94,1 foizga, onlayn mikroqarzlar 83,5 foizga va omonat operatsiyalari 67,3 foizga ko‘paygani e‘tiborga molik. Ushbu o‘zgarishlar mobil ilovalar faqat pul o‘tkazish yoki to‘lov qilish vositasi bo‘lib qolmay, kredit va jamg‘arma xizmatlari uchun ham muhim kanalga aylanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, kredit to‘lovini filialga bormasdan amalga oshirish mijozning yo‘l va navbat uchun sarflaydigan vaqtini tejashi, bankda esa kassalar yuklamasini kamaytirishi mumkin.

5-jadval

Banklar guruhlari bo‘yicha kreditlarning depozitlarga nisbati [14]

Banklar guruhi	01.01.2025 kredit/depozit, %	01.01.2026 kredit/depozit, %
Davlat ulushi mavjud banklar	237,3	190,2
Boshqa banklar	107,9	97,5
Bank tizimi jami	172,7	144,8

Jadvaldagi taqqoslash davlat ulushi mavjud banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati 2024-yildagi 237,3 foizdan 2025-yilda 190,2 foizgacha qisqarganini ko‘rsatmoqda. Xuddi shu davrda boshqa banklarda mazkur ko‘rsatkich 107,9 foizdan 97,5 foizgacha pasaygan, bank tizimi bo‘yicha umumiy nisbat esa 172,7 foizdan 144,8 foizgacha tushgan. Demak, ikki guruhda ham depozitlar bazasi kreditlar qoldig‘iga nisbatan tezroq kengaygan, biroq davlat ulushi mavjud banklarda kreditlarni moliyalashtirishda depozitdan tashqari resurslar hali ham muhima ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Banklar xizmat narxini belgilashda, avvalambor, moliyaviy resurslarni qanday qiymatda jalb qilayotganini hisobga oladi. Barqaror depozitlar bazasiga ega bank mijozga qulay shartlarni taklif qilish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lishi mumkin, biroq depozitlar haddan tashqari yuqori foiz evaziga jalb etilgan bo‘lsa, ushbu ustunlik kamayadi. Raqamli omonat xizmatlarining iqtisodiy samarasi ham shu bog‘liqlik asosida baholanishi zarur. Bunda omonatlarning yalpi hajmi

bilan cheklanmasdan, yangi omonatchini jalb etish xarajatlari, uning mablag‘ini bankda saqlash muddati va boshqa bank mahsulotlaridan qayta foydalanish darajasini ham o‘rganish muhimdir. Aynan shu ma‘lumotlar raqamli xizmatlarning resurs bazasi barqarorligi va mijoz bilan uzoq muddatli munosabatlarga qo‘shgan hissasini aniqroq ko‘rsatishi mumkin.

6-jadval

O‘zbekistonda katta yoshdagi aholining moliyaviy hisobvaraqqa egaligi [15]

Ko‘rsatkich	2021-yil	2024-yil	Farq, foiz punkti
15 yoshdan katta aholining hisobvaraqqa egalik ulushi, %	44,13	59,66	+15,53
Hisobvaraqqa ega bo‘lmaganlarning hisobiy ulushi, %	55,87	40,34	−15,53

Jahon bankining Global Findex ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 15 yoshdan katta aholining moliyaviy hisobvaraqqa egalik darajasi 2021-yildagi 44,13 foizdan 2024-yilda 59,66 foizga yetgan. Demak, uch yil ichida bu ko‘rsatkich 15,53 foiz punktga oshgan. Mazkur o‘sish aholining bank va boshqa moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2024-yil ma‘lumotlari katta yoshdagi aholining qariyb 40,3 foizi hali ham hisobvaraqqa ega emasligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, banklarning raqamli rivojlanishi faqat amaldagi mijozlarga yangi qulayliklar yaratish bilan cheklanmasligi kerak. Uning muhim natijalaridan biri ilgari bank xizmatidan foydalanmagan aholi uchun sodda, tushunarli va xavfsiz xizmatlarni taklif etish bo‘lishi lozim.

Masofaviy bank xizmatlaridagi 82,90 million qayd bilan aholining 59,66 foizi hisobvaraqqa egaligi haqidagi ko‘rsatkich bir-biriga zid emas. Chunki ular iqtisodiy mazmuni jihatidan turli holatlarni aks ettiradi. Birinchi ko‘rsatkich 2026-yil boshida banklarning masofaviy tizimlarida qayd etilgan yozuvlar yig‘indisini bildirsa, ikkinchisi 2024-yilda o‘tkazilgan aholi so‘rovi asosida aniqlangan ulush hisoblanadi. Bundan tashqari, ayni mijoz bir nechta bankda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi mumkinligi qaydlar sonini oshiradi. Shuning uchun raqamli xizmatlarning jamiyatga ta‘sirini baholashda yaratilgan akkauntlar sonigagina tayanish noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Banklarning haqiqiy yutug‘i avval hisobvarag‘i bo‘lmagan fuqarolarni xavfsiz xizmatga jalb qilish va ularning birinchi operatsiyadan keyin ham muntazam foydalanishini ta‘minlash orqali namoyon bo‘ladi.

Xorijiy amaliyotda ham raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi faqat foydalanuvchilar soni bilan baholanmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada ochiq bank xizmatlari orqali 2025-yilda 351 million to‘lov bajarilgani, API so‘rovlari soni 24 milliardga yetgani va tizimning foydalanish bo‘yicha vaznlangan mavjudlik darajasi 99,5 foizdan yuqori bo‘lgani e‘lon qilingan [16]. Ushbu raqamlarning birgalikda berilishi xizmat hajmi bilan uning uzluksiz ishlashi o‘rtasidagi farqni ko‘rish imkonini yaratadi.

Raqamli bank xizmatlarini tezlashtirish va soddalashtirish jarayonida xavfsizlik talablarini ikkinchi o‘ringa surib bo‘lmaydi. Masalan, mijozni tekshirish tartibini haddan tashqari qisqartirish operatsiya vaqtini kamaytirishi mumkin, ammo firibgarlik xavfini oshirsa, bank ham, mijoz ham zarar ko‘radi. Bazel qo‘mitasining 2024-yildagi hisoboti va 2026-yilda e‘lon qilingan xalqaro tahlillar ham texnologik yangilanish bilan birga axborot xavfsizligi, firibgarlik va operatsion uzilish risklarini boshqarish zarurligini ta‘kidlaydi [17]. Shu sababli xizmat sifati faqat tezlik yoki past komissiya bilan o‘lchanmasligi kerak. Bankning haqiqiy raqobat ustunligi mijoz operatsiyasini xavfsiz, uzluksiz va tushunarli tartibda bajarishi hamda buning uchun maqbul xarajat qilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston bank tizimida resurslar tarkibi va banklararo raqobat sharoitlari sezilarli o‘zgarayotganligini ko‘rsatdi. Xususan, depozitlar kreditlarga nisbatan tezroq o‘sgan, davlat ulushi mavjud banklarning aktivlardagi hissasi qisqargan va masofaviy xizmatlar tizimidagi qaydlar 2026-yil boshida 82,90 millionga yetgan. Shundan kelib chiqib, bankning

raqamli transformatsiyasini raqobat ustunligiga aylantiradigan asosiy omil mijozning kerakli xizmatni qulay va ishonchli yakunlashi bilan bankning shu natijaga maqbul xarajat evaziga erishishi o‘rtasidagi uyg‘unlik ekanligi asoslanadi. Mazkur yondashuvni bank amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, bank xizmatlarini raqamlashtirish natijasini baholashda ilovaga ulangan foydalanuvchilar sonini yagona mezon sifatida qabul qilishdan voz kechish zarur. Har bir bank omonat ochish, pul o‘tkazish va kredit xizmatlaridan foydalanishda mijoz bosib o‘tadigan jarayonni boshidan oxirigacha o‘rganishi lozim. Masalan, ariza to‘ldirish, hujjat yuklash, shaxsni tasdiqlash yoki to‘lovni yakunlash bosqichlarining qaysi birida mijozlar ko‘proq to‘xtab qolayotgani aniqlansa, bank ortiqcha talablarni kamaytirish bo‘yicha asosli qaror qabul qila oladi. Natijada xizmatlar sonining ko‘payishi emas, aynan muvaffaqiyatli yakunlangan operatsiyalar ulushi boshqaruv uchun muhim ko‘rsatkichga aylanadi.

Ikkinchidan, banklarning ichki hisobotlarida raqamli xizmatlar samaradorligini “qamrov - foydalanish - sifat - iqtisodiy natija” ketma-ketligi asosida kuzatib borish taklif etiladi. Bunda ro‘yxatdan o‘tganlar soni bilan birga so‘nggi 30 kunda faol bo‘lgan mijozlar ulushi, boshlanib yakunlangan operatsiyalar nisbati, murojaatlarning belgilangan muddatda hal etilishi va muvaffaqiyatli bajarilgan bitta xizmatning tannarxi hisoblanishi kerak. Ushbu ko‘rsatkichlar har chorakda bir xil uslubda shakllantirilsa, bank rahbariyati qaysi xizmat haqiqatan yaxshilanayotganini, qaysi yo‘nalishda esa xarajat oshib, mijoz uchun qulaylik yaratilmayotganini aniqlashi mumkin. Bunday kuzatuv raqamlashtirishga ajratilgan mablag‘larni aniq natija beradigan yo‘nalishlarga yo‘naltirish uchun ham zarur.

Uchinchidan, raqamli kanallar va bank xodimlarining maslahat xizmatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Oddiy to‘lovlar, hisobvaraq bo‘yicha ma‘lumot olish yoki standart omonatlarni ochish amaliyotlari to‘liq masofadan bajarilishi mumkin. Lekin kichik biznes kreditlari, garov bilan bog‘liq bitimlar va murakkab korporativ xizmatlarda mijozga malakali mutaxassis ko‘magi ham kerak bo‘ladi. Shu sababli mijoz ilovada taqdim etgan ma‘lumotlarni keyingi maslahat bosqichida qaytadan so‘ramaydigan, raqamli va an‘anaviy xizmatlarni bog‘laydigan tartibni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, bankda yangi raqamli xizmat joriy etilganda uning iqtisodiy samarasi faqat bajarilgan tranzaksiyalar soni yoki filial xarajatining kamayishi bilan baholanmasligi lozim. Bitta muvaffaqiyatli xizmatga to‘g‘ri keladigan to‘liq tannarxni hisoblashda dasturiy ta‘minot, texnik infratuzilma, xodimlar mehnati, nosoz operatsiyalarni qayta ishlash, mijoz shikoyatlarini ko‘rib chiqish va firibgarlikdan kelib chiqqan zararlar ham hisobga olinishi zarur. Ana shunda bank yangi texnologiya hisobiga umumiy operatsiyalar soni ko‘payganini emas, har bir yakunlangan xizmat uchun sarflangan resurslar haqiqatan kamaygan-kamaymaganini aniqlay oladi. Bu raqamlashtirish loyihalarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, taklif etilgan indikatorlarni bir vaqtning o‘zida bankning barcha mahsulotlariga tatbiq etishdan ko‘ra dastlab eng ko‘p foydalaniladigan xizmatlarda sinovdan o‘tkazish foydaliroq. Buning uchun pul o‘tkazmalari, onlayn omonat ochish va kredit to‘lovlarini masofadan so‘ndirish amaliyotlarini tanlash mumkin. Har bir xizmat bo‘yicha faol mijozlar ulushi, bajarilish vaqti, texnik sabab bilan yakunlanmagan operatsiyalar hamda bitta muvaffaqiyatli xizmatning tannarxi alohida hisoblanadi. Keyin bir xil xizmatlar bo‘yicha turli banklar natijalari solishtirilib, aniqlangan farqlar mijozlar tarkibi va bank faoliyati ko‘lami bilan izohlanadi. Shu tarzda to‘plangan amaliy ma‘lumotlar taklif etilgan baholash yondashuvini keyingi ilmiy tadqiqotlarda empirik jihatdan tekshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni. “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”.

2. Abdurahmonova, M. (2024). Transformation of commercial banks in the conditions of digital technology development. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(3), 210–215.
3. Xudayberganova, Z. (2023). O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(11).
4. Lóska, G., & Uotila, J. (2024). Digital Transformation in Corporate Banking: Toward a Blended Service Model. California Management Review, 66(3), 93–115.
5. Ayinaddis, S. G., Taye, B. A., & Yirsaw, B. G. (2023). Examining the effect of electronic banking service quality on customer satisfaction and loyalty: an implication for technological innovation. Journal of Innovation and Entrepreneurship,.
6. Khera, P., Ng, S., Ogawa, S., & Sahay, R. (2021). Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper, 2021/167.
7. Rajabov, S. (2026). O‘zbekiston tijorat banklarida aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari. Muhandislik va iqtisodiyot.
8. Basel Committee on Banking Supervision (2024). Digitalisation of finance. Bank for International Settlements.
9. Open Banking Limited (2026, 29 January). Open Banking in 2025: Now Part of the UK‘s Everyday Financial Life.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma’lumotlari
11. World Bank (2025). The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy.
12. Frost, J., Prenio, J., Shreeti, V., & Symington, D. (2026). Digitalisation and innovation: opportunities and risks for financial health. FSI Briefs, No. 31. Bank for International Settlements.
13. Basel Committee on Banking Supervision (2024). Digitalisation of finance. Bank for International Settlements.